



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MONOPOLIYAGA
QARSHI KURASHISH QO‘MITASI

002434

BUYRUQ

Toshkent shahri

“ 03 ” 10 2022 y.

№ 174-SHT

“O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tizimi tashkilotlari tomonidan yosh mutaxassislarni tanlash dasturi” to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2022-yil 4-avgust kuni Davlat xizmatini isloh qilish va boshqaruvda natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan yig‘ilishning 61-son bayoni (02-RA 1-13670-son, 16.08.2022-y.) ijrosini ta‘minlash, shuningdek “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni ijrosini ta‘minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida, **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev rahbarligida 2022-yil 4-avgust kuni Davlat xizmatini isloh qilish va boshqaruvda natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan yig‘ilishning 61-son bayonining bandiga asosan, quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan birgalikda bir oy muddatda Yosh mutaxassislarni tanlashning namunaviy dasturini ishlab chiqish;

Bunda, dastur doirasida oliygohlarning bitiruvchi kurslarida o‘qiyotgan qobiliyatli yoshlar saralanib, ularning tizimda stajirovkasi tashkil etilishi va keyinchalik zaxiraga kiritilishini nazarda tutish;

davlat organlari va tashkilotlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bir oy muddatda Yosh mutaxassislarni tanlashning namunaviy dasturi asosida o‘z dasturlarini ishlab chiqish belgilanligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi va Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan birgalikda ishlab chiqilgan “Yosh mutaxassislarni tanlashning namunaviy dasturi”ga muvofiq, “O‘zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi tizimi tashkilotlari tomonidan Yosh

mutaxassislarni tanlash dasturi” (*keyingi o‘rinlarda – Dastur*) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Dastur doirasida oliy ta’lim muassasalarining bitiruvchi kursida o‘qiyotgan qobiliyatli yoshlarni saralab olish bo‘yicha Tanlov komissiyasi (*keyingi o‘rinlarda – Tanlov komissiyasi*) tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Tanlov komissiyasi zimmasiga mazkur Dasturni amalga oshirish jarayonlarini muvofiqlashtirish hamda Dastur doirasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan o‘rnatilgan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligiga ma’lumot kiritib borish Qo‘mita yoshlar yetakchisi A.Botirov zimmasiga yuklatilsin.

4. Raisning birinchi o‘rinbosari A.Qayumov, Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasi (B.Maxmudov) bilan birgalikda, **bir hafta muddatda** Qo‘mita markaziy apparatida Toshkent shahrida joylashgan tegishli oliy ta’lim muassasalari (*keyingi o‘rinlarda – OTM*) bilan o‘quv dasturlarini muvofiqlashtirish, talabalarining malaka oshirishlari, shu jumladan bitiruvchi kurs talabalarining stajirovkasini tashkil qilish bo‘yicha o‘zaro hamkorlik Memorandumlarini (*keyingi o‘rinlarda – Memorandum*) imzolash yuzasidan taklif kiritsinlar.

5. Qo‘mitaning hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalariga:

uch kunlik muddatda ushbu buyruqning ilovasi bilan tasdiqlangan Dastur asosida o‘zlarining idoraviy dasturlarini tasdiqlash;

bir haftalik muddatda hududlarda joylashgan tegishli OTMlar bilan talabalarining malaka oshirishlari, shu jumladan bitiruvchi kurs talabalarining stajirovkasini tashkil qilish bo‘yicha OTMlar bilan o‘zaro hamkorlik Memorandumini imzolash ishlarini amalga oshirish;

joriy yilning 25-oktyabriga qadar amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma’lumotlarni Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasiga taqdim etish vazifasi topshirilsin.

6. Devonxona (F.Ikramova) ushbu buyruq nusxalari Qo‘mitaning markaziy apparati tegishli tarkibiy bo‘linmalari, hududiy boshqarmalari va idoraviy mansub tuzilmalariga yetkazilishini ta’minlasin.

7. Ushbu buyruq ijrosi ustidan nazorat qilishni o‘z zimmasida qoldiraman.

Rais

Sh. Sharaxmetov

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tizimi tashkilotlari tomonidan Yosh mutaxassislarini tanlash DASTURI

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi (keyingi o'rnlarda - Qo'mita) markaziy apparati tarkibiy bo'limalari, idoraviy mansub tashkilotlari va hududiy boshqarmalari (keyingi o'rnlarda - Qo'mita tizim tashkilotlari) tomonidan "Yosh mutaxassislarni tanlash" dasturi (keyingi o'rnlarda - Dastur) oliy ta'lim muassasalarining (keyingi o'rnlarda - OTM) bitiruvchi kursida o'qiyotgan qobiliyatli yoshlarni saralab olish, ularning stajirovkasini tashkil etish va keyinchalik zaxiraga kiritish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

Dastur maqsadi - Qo'mita tizim tashkilotlariga eng munosib kadrlarni tanlash va istiqbolli kadrlarni tayyorlashni tizimli yo'lga qo'yish hamda OTM bitiruvchilarini Qo'mita faoliyatiga jalb qilish samaradorligini oshirishdan iborat.

Dastur vazifalari:

oliy ta'lim muassasalari hamda Qo'mita tizim tashkilotlari o'rtasida integratsiyani yo'lga qo'yish;
eng salohiyatli va bilimli bitiruvchilarni seleksiya qilish;

nomzodlarni Qo'mita tizim tashkilotlariga stajirovka o'tash uchun yo'naltirish hamda "ustoz-shogird an'anasi" asosida tajribali ustoz-mentorlarga birlashtirish;

stajirovkani muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilarni tanlov (subbat) asosida Qo'mita tizim tashkilotlariga ishga qabul qilish.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Dasturda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

Oliy ta'lim muassasasi - bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlovchi davlat ta'lim muassasasi;

bitiruvchi - OTM kunduzgi shaklining bakalavriat bosqichi bitiruv kurs talabalari;

Qo'mita tizim tashkilotlarida stajirovka o'tash - yosh mutaxassislarni davlat xizmatiga tayyorlash, kasbiy faoliyat ta'minlashini his etish va tajribali mutaxassislarning ish faoliyatini o'rganish orqali OTMda olgan nazariy bilimlarini amaliy mustahkamlash jarayoni;

malaka talablari - tizimdagi ma'lum bir davlat fuqarolik lavozimiga stajyor bo'lish uchun nomzodlarga nisbatan davlat organi tomonidan belgilanadigan tegishli

ma'lumot, shuningdek bilim va kasbiy kompetensiyasiga qo'yilgan talablar,
stajirovka rahbari - tizim tashkilotidagi stajirovka jarayonini muvofiqlashtirish mas'uliyati yuklangan rahbar xodimi.

ustoz-mentor - stajirovka o'tayotgan bitiruvchilarga davlat xizmatidagi faoliyatida "ustoz-shogird" an'anasi asosida zarur tashkiliy ko'rsatmalar beruvchi, ularni texnik xavfsizlik qoidalari bilan tanishtiruvchi, amaliy ko'nikma va malakalarni o'rgatuvchi, stajirovka davrida talaba egallagan ko'nikmalarni baholash yuklangan tajribali davlat fuqarolik xizmatchisi;

shaxsiy rivojlanish rejasini - bitiruvchining tizim tashkilotida stajirovkasi davomida o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilim va ko'nikmalar muddatlar kesimida aks ettiriladigan hujjat;

kadrlar zaxirasi - tizim tashkilotidagi lavozimlarni salohiyatli, yosh kadrlar bilan ta'ldirilishini ta'minlaydigan, yuqori malakali mutaxassislar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar bazasi.

2-bob. Tanlov o'tkazish tartibi

2. "Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi" I-ilovadagi dasturni amalga oshirish sxemasi bo'yicha tegishli bosqichlarda va belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

3. Qo'mita Qo'mita tizim tashkilotlari rasmiy sahifalarida Dastur bo'yicha stajirovka tanlovi haqida e'lon beriladi va targ'ibot tashviqot ishlari amalga oshiriladi.

4. Nomzodlardan stajirovka tanlovida ishtirok etish uchun arizalar onlayn shaklda (*b.maxmudov@antimon.gov.uz elektron pochta orqali*) qabul qilinadi.

5. Malaka talablarga muvofiq ariza egalari saralash bosqichida ishtirok etishga taklif qilinadi.

6. Nomzodlar O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, davlat fuqarolik xizmati va korruptsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi qonunchilik, davlat tili, axborot texnologiyalari, shuningdek tizim faoliyati bilan bog'liq bilim darajasini aniqlash uchun Qo'mita tizim tashkilotlari tomonidan tashkil etiladigan maxsus test sinovidan o'tadilar.

7. Test sinovlari bazasi Yoshlar ishlari agentligi buyurtmasiga binoan ushbu tashkilot mablag'lari hisobidan Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti tomonidan ishlab chiqiladi.

8. Test bosqichi Qo'mita tizim tashkilotlari bilan hamkorlik qilayotgan OTMlarning maxsus kompyuter xonalarida o'tkaziladi. Tanlov jarayonlari Yoshlar ishlari agentligi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

9. Test bosqichidan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlar (*71 foizdan yuqori*) tegishli Qo'mita tizim tashkilotlari tomonidan tuzilgan maxsus komissiya tomonidan subbatdan o'tkaziladi.

10. Nomzodlar ko'rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq jadval bo'yicha baholanadi. Baholash natijalariga ko'ra, sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarni stajirovkaga qabul qilish haqida Qo'mita tizim tashkilotlari rahbarlarining buyrug'i chiqariladi.

11. Stajirovka jarayonini namunali yakunlagan yosh mutaxassislar stajirovka o'tagan davlat organlarining kadrlar zaxirasiga kiritiladi.

3-bob. Ctajirovkani tashkil etish qoidalarini

12. Stajirovka tanlovlardan muvaffaqiyatli o'tgan bitiruvchi bilan 3-ilovaga muvofiq tuziladigan, tashkilot rahbari yoki rahbar tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan imzolangan stajirovka shartnomasi asosida tashkil qilinadi.

13. Mazkur shartnomada stajirovkani tashkil etish va o'tkazish bo'yicha shartnoma predmeti, taraflarning huquq va majburiyatlari, qabul qiluvchi tashkilotning ish faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda stajirovkani o'tash tartibi, shartnomaning amal qilish muddati va bekor qilish asoslari, shuningdek, taraflarning javobgarligiga oid normalar nazarda tutiladi.

14. Stajirovka uch oydan kam bo'lmagan hamda bir yildan ko'p bo'lmagan muddatda amalga oshirilishi lozim.

15. Qo'mita yoshlar yetakchisi, Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasi bilan birgalikda mazkur Dasturni amalga oshirish jarayonlarini muvofiqlashtiradi. Stajirovkani tashkil etishning zarur tashkiliy-huquqiy choralarini ko'radi.

Hususan:

tanlov jarayonlarini belgilangan mezonlar asosida shaffof va adolatli o'tishini ta'minlaydi;

stajirovkaga jalb qilingan talabalar ma'lumotlarini umumlashtiradi;

stajirovka yakunlari bo'yicha hisobot (taqdimot) jarayonlarida ishtirok etadi;

dasturni amalga oshirish sxemasi bo'yicha barcha bosqichlardagi chora-tadbirlarni muvofiqlashtiradi;

stajirovka o'tashda yoshlar huquq va manfaatlarini ta'minlash yuzasidan monitoringni amalga oshiradi;

stajirovka yakunlari bo'yicha Qo'mita tizim tashkilotlarining hisobot va takliflarini umumlashtiradi;

dastur bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi yoshlar agentligiga axborot beradi.

16. Qo'mita tizim tashkilotlari stajirovkani tashkil etishning zarur tashkiliy-huquqiy choralarini ko'radi. Xususan:

sinov jarayonlarini adolatli va shaffof tarzda tashkil etadi;

malakali va tajribali mutaxassislar orasidan stajyor bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lgan stajirovka rahbari va ustoz-mentorni tayinlaydi;

bitiruvchilarni stajirovka davrida o'z xodimi sifatida faoliyat olib borishi uchun tashkilot rahbarining buyrug'ini chiqaradi;

stajirovka dasturiga muvofiq bitiruvchilarga joriy qilinadigan shart-sharoitlar (shaxsiy himoya, moddiy-texnika vositalari va boshqalar)ni yaratadi;

stajyorlarga mavjud adabiyotlar, texnik va boshqa hujjatlardan (maxfiy xarakterga ega bo'lgan xujjatlardan tashqari) foydalanish imkoniyatlarini beradi; tashkilotning ichki mehnat intizomini buzgan stajyor bilan tuzilgan stajirovka shartnomasini belgilangan tartibda bekor qiladi;

bitiruvchi stajirovkani o'tash davrida davlat organida baxtsiz hodisaga uchragan holatlar bo'yicha javobgarlik masalalarini qonunchilik hujjatlarini asosida ko'rib chiqadi.

17. Stajirovka rahbari stajirovka o'tayotgan bitiruvchilarga rahbarlik qiladi. Uning vazifalari:

Qo'mitaning tarkibiy tuzilmalari va hududiy bo'limlari bo'yicha talabalarni taqsimlaydi, ob'ektni tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;

stajyor bilan stajirovka o'tash shartnomasini imzolaydi;

stajyorlar bilan tashkilot rahbarlari va yetakchi xodimlarning uchrashuvini tashkil etadi.

18. Ustoz-mentor sifatida tizimda kamida uch yillik tajribaga ega, mehnat jamoasida obro'-e'tiborli davlat xizmatchisi "ustoz-shogird" an'anasi asosida ko'pi bilan ikki nafar bitiruvchiga biriktirilishi mumkin. Uning vazifalariga quyidagilar kiradi:

stajyorlarga ish faoliyati va texnika xavfsizligi bo'yicha tushuntirish, shuningdek qabul qiluvchi tashkilotning ichki tartib qoidalari va ish rejimining xususiyatlari bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatish;

stajirovka dasturiga taalluqli materiallardan foydalanish tartib-qoidalarini o'rgatadi;

stajyor ish kunining belgilangan davomiyligiga va stajerning shaxsiy ish rejajasiga rioya etilishini nazorat qiladi.

19. Stajyor tizim tashkilotida stajirovka o'tashda:

stajirovka bo'yicha uslubiy va ko'rsatma materiallar bilan tanishishi;

stajirovka shartnomasi bilan yuklatilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirishi;

stajyorning shaxsiy ish-rejasida nazarda tutilgan barcha topshiriqlarni belgilangan muddatlarda, to'liq hajmda va sifatli bajarishi;

stajirovka o'tash to'g'risidagi hisobotni taqdim qilishi;

faoliyatida foydalanishi mumkin bo'lgan materiallar to'plamini shakllantirishi;

qabul qiluvchi tashkilotning ichki mehnat tartib qoidalari va xodimlari faoliyatining tartibini belgilovchi hujjatlariga rioya qilishi shart.

4-bob. Stajirovkani o'tash tartibi

20. Stajirovka quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- tayyorlov;

**Yosh mutaxassislarini tanlash dasturini amalga oshirish
SXEMASI**

Bosqichlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar	Sub'ektlar
1-bosqich	Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi shtat birliklarining o'n foizdan kam bo'lmagan miqdorda stajyorlarni jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlar (moddiy texnika)ni yaratish	2022 yil Sentyabr	A.Qayumov, B.Maxmudov, A.G'afforov, Idoraviy mansub tuzilmalar rahbarlari
2-bosqich	Dastur doirasida har bir idoraviy mansub tuzilmalar bilan integratsiya qilinaidigan OTMlar ro'yxatini shakllantirish hamda ular bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish	2022 yil Sentyabr	A.Qayumov, B.Maxmudov, A.Botirov, Idoraviy mansub tuzilmalar rahbarlari, Kadrlar xizmati
3-bosqich	Rasmiy veb-saytlar, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda "Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi" bo'yicha tanlov e'lon qilish hamda OTMlarda targ'ibotini tashkil qilish	2022 yil Oktabr oyining I yarmi	B.Maxmudov, A.Botirov, Idoraviy mansub tuzilmalar rahbarlari, Kadrlar xizmati

- asosiy;

- hisobotlarni topshirish va baholash.

21. Stajirovka tayyorlov bosqichining birinchi kunida stajirovka rahbari tomonidan yig'ilish o'tkaziladi. Yig'ilishda talabalar stajirovkani o'tash dasturi bilan tanishadilar, uning maqsad va vazifalariga taalluqli ko'rsatmalar, stajirovkani o'tash va 4-ildavadi hisobot shaklini to'ldirish tartibi haqida xabardor qilinadilar.

22. Stajirovka o'tashning boshida talabalar qabul qiluvchi tashkilotning tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari, o'ziga xosligi bilan tanishadilar hamda stajirovka rahbari va birlashtirilgan ustoz-mentor bilan birgalikda stajirovkani o'tash dasturini bajarish bo'yicha 5-ildavaga muvofiq, shaxsiy ish reja jadvalini tuzadilar.

23. Stajirovkaning asosiy bosqichida bitiruvchi bevosita stajirovkani o'tash dasturini bajarish bo'yicha Shaxsiy ish rejada ko'rsatib o'tilgan ishlarni bajaradi.

24. Stajirovka yakunlari bo'yicha hisobotni topshirish so'nggi bosqich hisoblanadi. Belgilangan tartibdagi hisobot-taqdimot stajirovka rahbari, ustoz-mentor va yoshlar yetakchisi (Yoshlar ishlari agentligi vakili) tomonidan baholalanib tasdiqlanadi.

25. Stajirovkani muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilar Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi hamda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 6-ildavaga asosida tasdiqlangan sertifikat bilan taqdirlanadi. Mazkur sertifikat asosida bitiruvchilarni davlat xizmatiga ishga qabul qilishda imtiyoz nazarda tutiladi.

26. Dastur bo'yicha stajirovka o'tayotgan bitiruvchilarga tegishli tizim tashkilotlari tomonidan (Qo'mitaning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan) bazaviy hisoblash miqdorining bir barobaridan uch barobarigacha miqdorda stipendiyalar berilishi mumkin.

5-bob. Qo'mita tizim tashkilotlariga ishga qabul qilish

27. Qo'mita tizim tashkilotlari tomonidan hisobot davrida mavjud vakant lavozimlardan kelib chiqib, yosh mutaxassislar uchun eng kam darajali davlat xizmatchilari lavozimlari ro'yxatini shakllantiradi. Ushbu lavozimlar vakant lavozimlarning 10 foizi miqdorida bo'lishi tavsiya qilinadi.

28. Ro'yxatdagi lavozimlar uchun bitiruvchilarga alohida malaka talablari ishlab chiqiladi.

29. Dastur asosida stajirovkani muvaffaqiyatli tamomlagan, sertifikatga ega bitiruvchilar tizim tashkiloti tomonidan e'lon qilinadigan mutaxassis lavozimiga o'tkaziladigan test sinovlaridan o'tgan hisoblanib, boshqa nomzodlar bilan bir qatorda tanlov komissiyasi tomonidan o'tkaziladigan suhbat asosida ishga qabul qilinadi.

6-bob. Yakuniy qoida

30. Mazkur Dastur bo'yicha yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

8-bosqich	Ustoz-mentor tomonidan stajyor faoliyatini kuzatib borish asosida uning bilimi, ko'nikmalari va amaliy tajribasi oshishiga ko'maklashish	2022-2023 yillar Dekabr - Iyul	Ustoz-mentor, Q.Abdulholikov, Sh.Omanov, Idoraviy mansub tuzilmalari rahbarlari, Kadrlar xizmati Tanlov komissiyasi, Stajirovka rahbari, B.Maxmudov, A.Botirov, Idoraviy mansub tuzilmalari rahbarlari, Yoshlar ishlari agentligi Tanlov komissiyasi, Stajirovka rahbari, B.Maxmudov
9-bosqich	Stajirovka faoliyati yakunlari bo'yicha stajyor taqdimotini baholash va muvaffaqiyatli tamomlagan stajyorlarga sertifikat berish	2023 yil Iyul	
10-bosqich	Sertifikatga ega bitiruvchilar orasidan tanlov (subbat) asosida ishga qabul qilish	Vakant joy ochilgan vaqtda	
11-bosqich	Stajirovka yakunlari va davlat xizmatiga qabul natijalari bo'yicha "Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi" ni takomillashtirish yuzasidan xulosa va takliflarni shakllantirish	2023 yil Avgust	B.Maxmudov, A.Botirov

4-bosqich	"Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi" bo'yicha e'lon qilingan tanlov bo'yicha kelib tushgan hujjatlarni qabul qilish	2022 yil Oktabr oyining II yarmi	B.Maxmudov, Idoraviy mansub tuzilmalar rahbarlari, Kadrlar xizmati
5-bosqich	Nomzodlarning bilim darajasini aniqlash uchun test sinovidan o'tkazish	2022 yil Noyabr oyining I yarmi	B.Maxmudov, Idoraviy mansub tuzilmalar rahbarlari, Kadrlar xizmati, Oliy ta'lim muassasalari
6-bosqich	Test bosqichidan muvaffaqiyatli (71 foizdan yuqori) o'tgan bitiruvchilarni Qo'mita tizim tashkilotlari tashkil etilgan maxsus komissiya tomonidan subbatdan o'tkazish	2022 yil Noyabr oyining II yarmi	Tanlov komissiyasi, B.Maxmudov, Idoraviy mansub tuzilmalari rahbarlari, Kadrlar xizmati, Oliy ta'lim muassasalari
7-bosqich	Subbatdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarni stajirovkaga jalb etish, ustoz-mentor biriktirish, Stajirovka o'tash shartnomasi va Shaxsiy rivojlanish rejasini imzolash	2022 yil Dekabr	Stajirovka rahbari, Ustoz-mentor, Q.Abdulholikov, Idoraviy mansub tuzilmalari rahbarlari, Kadrlar xizmati, Oliy ta'lim muassasalari

Yosh mutaxassislarini tanlash dasturi bo'yicha nomzodlar ko'rsatkichlarini baholash

JADVALI

№	FISH	Ofiy ta'lim muassasasi	Mutaxassislik	Kursi	Reyting bahosi 20 ball	Test 40	Sahbat 30 ball	Til sertifikatiga ega bo'lgan 10 ball	JAMI
1.	Abdullayev Sardor Ilhom o'g'li	Toshkent moliya instituti	Moliya	4	17,4	25	25	10	77,4
2.

Izoh:

"Fanlarni baholash" so'nggi semestr natijalariga ko'ra fanlardan olingan baholan 20 ballidan foiz olish bilan hisoblanadi.
(masalan, o'rtacha reyting ko'rsatkichi 87 bo'lsa, $20 \times 0,87 = 17,4$)

Stajirovka o'tash to'g'risida
namunaviy ShARTNOMA

Toshkent shahri

2022 yil " " "

(*tizim tashkiloti nomi*) nomidan (keyingi o'rinlarda "Davlat organi" deb ataladi) (*rais, rais o'rinbosari, tizim tashkiloti rahbari* bir tomondan va fuqaro tomondan va fuqaro

(pasport seriyasi va raqami: AA _____, _____)

_____ tomondan _____ yilda berilgan) (keyingi o'rinlarda "Stajyor" deb ataladi) ikkinchi tomondan, vazirlik va idoralar hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarida yosh mutaxassisning stajirovka o'tashiga doir mazkur shartnomani tuzib imzoladilar.

1. "Stajyor"

_____ vazifalarni bajaradi.

2. Taraflar o'rtasidagi munosabatlarga tashkilot rahbarining 20 ___ yil " " ___ son buyrug'i talablari tatbiq etiladi.

3. "Stajyor"ning majburiyatlari:

stajirovka bo'yicha uslubiy va ko'rsatma materiallar bilan tanishish;

stajirovkani tashkil etish va undan o'tish bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etish;

stajirovkadan o'tish dasturida nazarda tutilgan barcha tadbirlarni stajirovka uchun belgilangan muddat ichida, to'liq hajmda va sifatli bajarish;

stajirovka o'tash to'g'risidagi hisobotni taqdim qilish;

faoliyatida foydalanishi mumkin bo'lgan materiallar to'plamini shakllantirish;

tashkilotning ichki mehnat tartib qoidalari va xodimlar faoliyatining tartibini belgilovchi hujjatlarga rioya qilish;

mazkur shartnomaning I-bandida belgilangan vazifalarni bajarganligi to'g'risida har oy yakuni bo'yicha dalolatnomani taqdim etish.

"Davlat organi"ning ushbu shartnomadan kelib chiqadigan boshqa topshiriqlarini ham bajaradi.

4. "....."ning majburiyatlari:

mazkur shartnoma shartlariga, shuningdek, fuqarolik qonunchilik normalari va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya qilish;

stajirovka jarayonlarini adolati va shaffof tarzda tashkil etish;

malakali va tajribali mutaxassislar orasidan stajyor bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lgan stajirovka rahbari va ustoz-mentorni tayinlash;

stajyorlar uchun ish joyi va stajirovka davrida foydalanish uchun zaruriy materiallar (shaxsiy hujjatlar, moddiy-texnika vositalari va boshqalar) ajratilishini tashkil etish;

stajyorlarga mavjud adabiyotlar, texnik va boshqa hujjatlardan (mahfiy tusdagi xujjatlardan tashqari) foydalanish imkoniyatlarini yaratish;

stajyorning faoliyati natijadorligiga asosan unga o'ylak maosh to'lash;

har oy yakuni bo'yicha "Stajyor" tomondan taqdim etilgan bajarilgan ishlar haqidagi dalolatnomani o'rganish, "Stajyor" tomondan bajarilgan ishlar tasdiqlanganda stajyorga ushbu shartnomada belgilangan miqdorda haq to'lash.

5. Tomonlarning kelishuviga asosan "Stajyor" tomondan bajarilgan ish xajmi uchun har oy _____ () so'm to'lov to'lanishi mumkin.
Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ushbu summadan ushlab qolinadi va soliq organlariga o'tkaziladi.

6. "Stajyor" tomonidan har oy yakuni bo'yicha keyingi oyingning 3-sanasiga qadar "Davlat organi"ga bajarilgan ishlar hisoboti (dalolatnomasi) taqdim etiladi.

"Davlat organi"ga ushbu ishlar hisoboti dalolatnomasini qabul qilgan paytdan boshlab 3 ish kuni davomida tekshirib, taqdim etilgan ma'lumotlarning haqiqatda bajarilgan taqdirda dalolatnomani imzolaydi va 3 ish kuni davomida mazkur shartnomaning 5-bandida nazarda tutilgan miqdorda "Stajyor"ga haq to'laydi.

Bunda, ushbu to'lov "Stajyor" tomonidan taqdim etilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasiga asosan oyda ikki marta amalga oshirilishi mumkin.

7. Tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra mazkur shartnoma shartlariga kiritiladigan barcha qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma shaklda amalga oshiriladi.

8. Ushbu shartnoma 20 ___ yil ___ dan boshlab kuchga kiradi va 20 ___ yil ___ ga qadar amal qiladi.

9. Mazkur shartnoma taraflarning kelishuviga asosan yoki bir tarafning istagi asosida ikkinchi tarafni kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda bekor qilinishi mumkin.

Bunda shartnoma bekor qilingan paytdan boshlab 5 ish kuni davomida o'rtasida barcha hisob-kitoblar amalga oshiriladi, mazkur shartnoma ijrochi tomonidan o'z zimmasidagi vazifalarni bajarmaganligi tufayli bekor qilingan hollar bundan mustasno.

10. Mazkur shartnoma belgilangan muddatda yoki muddatdan oldin tugatilganda "Davlat organi" va "Stajyor" o'rtasida hech qanday o'zaro majburiyat vujudga kelishiga olib kelmaydi va biror bir ko'rinishdagi huquqiy oqibatlariga asos bo'lmaydi.

Qo'mita

Manzili: _____

STAJYO'R

Manzili: _____

F.I.O. _____

Pasport ma'lumotlari: _____

Yashash manzili: _____

(rais, rais o'rinbosari, boshliq, boshliq o'rinbosari)

_____ ning
"Yosh mutaxassislarini tanlash dasturi" doirasida
davlat organida stajirovka davomida bajarilgan ishlar yuzasidan

HISOBOT

T/r	Chora-tadbir nomi	Bajarilgan ishing mazmuni
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		

Stajyor


Ustoz-mentor

Stajirovka rahbari

Stajyorning namunaviy-shaxsiy ish rejasi

T/r	Ishning nomi	Stajirovkaning oylik rejasi								Bajarilganligi to'g'risida izoh	
		1	2	3	4	5	6	7	8		
1.	Tashkilot tashkiliy tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlarini bilan tanish.										
2.	Tashkilot tarkibidagi stajyer birlashtirilgan kompleks va tegishli bo'lim/boshqarma faoliyatini o'rganish, uning tegishli normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishish va ishlash.										
3.	Stajirovka bo'yicha uslubiy va ko'rsatma materiallar bilan tanishish.										
4.	Faoliyatida foydalanishi mumkin bo'lgan materiallar to'plamini shakllantirish.										
5.	Tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlarda ishtirok etish va ma'lumot qilib borish.										
6.	Fuqarolarning murojaatlarini ko'rib chiqilishini jarayoni bilan tanishish.										
7.	Statistik va boshqa ma'lumotlarni umumlashtirish asosida tahliliy ma'lumotlar tayyorlash, chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirishida ishtirok etish.										
8.	Stajirovka davomida to'plangan ma'lumotlar va o'rganilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlash va stajirovka rahbariga taqdimot qilish.										

Namunaviy sertifikat loyihasi



O'zbekiston Respublikasidagi barcha vazirlik va idoralar hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlari tomonidan Yosh mutaxassislarni tanlash dasturini amalga oshirish bo'yicha tavsiyaviy

KVOTA

T/r	Davlat organlari va tashkilotlarining nomlanishi	Stajerlar kvotasi (tasdiqlangan shart birlikidan 10%)
1.	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi	20
2.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi	20
3.	O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi	18
4.	O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi	8
5.	O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi	9
6.	O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	11
7.	O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi	20
8.	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi	14
9.	O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi	7
10.	O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi	20
11.	O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi	14
12.	O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi	10
13.	O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi	11
14.	O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi	6
15.	O'zbekiston Respublikasi Sportni rivojlantirish vazirligi	8
16.	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi	8
17.	O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi	14
18.	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi	13
19.	O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi	8
20.	O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi	5

21.	O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi	20
22.	O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi	20
23.	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi	8
24.	O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi	9
25.	O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasi	7
26.	O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi	7
27.	O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi	7
28.	O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologiya xizmati	9
29.	Prezident ta'lim muassasalari agentligi	6
30.	O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi	14
31.	O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi	6
32.	O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv" agentligi	2
33.	"O'zbekino" milliy agentligi	2
34.	O'zbekiston milliy axborot agentligi	1
35.	O'zbekiston Respublikasi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi	6
36.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Milliy antidoping agentligi	2
37.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi	3
38.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi	3
39.	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni sheriklikni rivojlantirish agentligi	6
40.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi	3
41.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi	2
42.	O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish agentligi	3

43.	O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi	15
44.	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmasevtika tarmog'ini rivojlantirish agentligi	5
45.	O'zbekiston Respublikasi Tibbiy-ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish agentligi	4
46.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi	9
47.	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi	7
48.	O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Xorijiy investitsiyalarni jalb etish agentligi	3
49.	O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag'batlantirish agentligi	3
50.	O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi	6
51.	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi	5
52.	O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi	5
53.	O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi	11
54.	O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi huzuridagi "O'zbekchorvanasi" agentligi	3
55.	O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi huzuridagi Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi	3
56.	O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini va himoyasi agentligi	15
57.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi	2
58.	O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi	8
59.	O'zbekiston Respublikasi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi	2
60.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat zaxiralarini boshqarish qo'mitasi	5
61.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita	7

62.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlari va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi	2
63.	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasi	8
64.	O'zbekiston Respublikasi Gidrometeorologiya xizmati markazi	10
65.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi	11
66.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazi	2
67.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat personallashirish markazi	4
68.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi	8
69.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi	6
70.	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Suv xo'jaligi ob'ektlari xavfsizligini nazorat qilish davlat inspeksiyasi	1
71.	O'zbekiston Respublikasi Axborotlashirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi	2
72.	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Yo'l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi	6
73.	O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Temir yo'llarda yuk va yo'lovchilar tashish xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi	2
74.	O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Elektr energetikada nazorat inspeksiyasi	3
75.	O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirligi huzuridagi Ko'p xonadonli uy-joy fondidan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi	2
76.	O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi huzuridagi Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspeksiyasi	9
77.	Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi	17
78.	O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi huzuridagi Qurilish sohasida nazorat inspeksiyasi	3
79.	O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi	5

Qo'mitaning 2022 yil ___ oktabrdagi ___
ShT-sonli buyrug'iga
2-Illova

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tizimi tashkilotlari tomonidan Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi doirasida oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchi kursida o'qiyotgan qobiliyatli yoshlarni saralab olish bo'yicha

Tanlov komissiyasi tarkibi*

1	Sh.Sh.Sharaxmetov	- Rais, <i>Komissiya raisi</i>
2	A.U.Qayumov	- Raisning birinchi o'rinbosari, <i>Komissiya raisi o'rinbosari</i>
3	F.E.Karabayev	- Rais o'rinbosari
4	B.X.Ummatov	- Rais o'rinbosari
5	G.T.Qodirova	Raisning ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi
6	A.A.Botirov	- Yoshlar yetakchisi
7	Sh.A.Shadmankulov	- Yuridik boshqarma boshlig'i
8	B.N.Maxmudov	- Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i
	I.U.Akbarov	Inson resurslari va xodimlar salohiyatini rivojlantirish boshqarmasi bosh mutaxassisi, <i>Komissiya mas'ul kotibi</i>

80.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat asillik darajasini belgilash palatasi	2
81.	Mutaxassislarni xorijda tayorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo'yicha "El-yurt umidi" jamg'armasi	3
82.	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	5
83.	O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Investitsiya loyihalarni ishlab chiqish markazi	3
84.	O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi huzuridagi Atrof muhitni muhofaza qilish sohasida ixtisoslashtirilgan analitik nazorat markazi	5
85.	O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi huzuridagi Bo'sh turgan ob'ektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi	2
86.	O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligining Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasida davlat nazorati departamenti	6
87.	O'zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi huzuridagi Neft mahsulotlari va gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi	3
88.	Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasi	2
89.	Toshkent shahri	11
90.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	8
91.	Andijon viloyati	6
92.	Buxoro viloyati	6
93.	Jizzax viloyati	6
94.	Qashqadaryo viloyati	7
95.	Navoiy viloyati	6
96.	Namangan viloyati	6
97.	Samarqand viloyati	6
98.	Sirdaryo viloyati	6
99.	Surxondaryo viloyati	6
100.	Toshkent viloyati	7
101.	Farg'ona viloyati	6
102.	Xorazm viloyati	6

**) - Komissiya a'zolari boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki tegishli funksiyalarni bajarish zimmasiga yuklangan shaxslar kiritiladi.*